



Shaxlo Komilova

O'zbekiston Fanlar akademiyasi

Tarix instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: komilovashaxlo25@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15814370>

AYOLLAR MIGRATSIYASI: SABABLAR VA OILAVIY MUNOSABATLARDAGI O'ZGARISHLARGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya. Bugungi globallashuv sharoitida ayollar oila a'zolarining qaramog'ida bo'lish uchun emas, balki ish topish uchun ko'proq migratsiya qilishadi. Aynan shu jarayon migratsiya feminizatsiyasi deb ataladi. Mazkur maqolada ayollar migratsiyasining oilaviy munosabatlarga ko'rsatadigan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, Farg'ona viloyati hududida o'tkazilgan so'rovnomalar, axborotchilardan olingan intervyular va hayotiy misollar asosida ayollar migratsiyasining oila tarkibi, oilaviy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar saqlanishiga va bolalar tarbiyasiga bo'lgan ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: feminizatsiya, ijtimoiy-madaniy ta'sir, gender tenglik, ayollarning iqtisodiy faolligi, "distant oilalar", oilaviy qadriyatlar.

Kirish. Ayollar migratsiyasi nafaqat bir ayol yoki oilaning, balki butun jamiyatning ruhiy va jismoniy salomatligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan juda murakkab va jiddiy hodisa sifatida alohida ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (2006) hisob-kitoblariga ko'ra, ayollar 2005 yilda dunyo muhojirlarining yarmini tashkil qilgan, ya'ni taxminan 95 million ayol. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, dunyodagi muhojirlar zaxirasida ayollar ulushi barqaror ravishda o'sib bormoqda. [1]

Migratsiya makonida gender muammolari bilan shug'ullangan tadqiqotchilar ichida E. I. Tyuryukanovning faoliyati eng salmoqli hisoblanadi.

N.G. Abdurazakova tadqiqotlarida Markaziy Osiyodan borgan migrant ayollar, ularning ko'proq qaysi sohalarda faoliyat yuritishlari, muhojirlarda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilgan. Bu tadqiqot ishida ayol migrantlarning xulq-atvori, migratsiya usullari va vositalari, ayol migrantlarning yangi yashash joylariga moslashish ko'nikmalari haqida bir qator qarashlar mavjud.

Asosiy qism. Ayollar migratsiyasi ta'sirida yuzaga keluvchi xatarlar va ularning oila mustahkamligiga ta'siri hamda migratsiyadagi ayollar muammolari oldini olishning muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan tadqiqotlarni D. A. Madjidova ham olib borgan. "Oilalar mustahkamligini ta'minlashda migratsiya ta'sirida yuzaga keluvchi xatarlarni oldini olishning muhim yo'nalishlari" nomli ilmiy maqolasida muallif ota-onaning daromad izlab xorijga ketishi, farzandlarning nazoratsiz qolishi, xorij davlatlaridagi urf-odat va madaniyatlarning oilalar, mahallalarga kirib kelishi, farzandlar tarbiyasiga singib borishi kabi muammolar haqida tadqiqot ma'lumotlariga tayanib, tahliliy xulosalar berib o'tgan.

Bugungi migratsiya jarayonlari, ayniqsa ayollar migratsiyasi horijiy tadqiqotlar uchun alohida e'tiborga molik mavzu bo'lib turibdi. Chunki ayollar migratsiyasi oilalarning ma'naviy muhiti, jamiyatdagi munosabatlar, farzandlar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatayotgan murakkab jarayondir.

Oilaviy hayot chiroyli davom etishi uchun er va xotin ayrim jihatlarda bir-biriga teng bo'lishi kerak. Bularning eng muhimlari diyonat, iqtisod va kasb-hunardir. Ya'ni er va xotin iqtisodiy jihatdan bir-birlariga mos bo'lishlari va yaqin kasb-hunar bilan

shugʻullanishlari bir-birlarini tushunib, tinch-totuv yashashlari uchun muhim omil hisoblanadi. Bu jihatlar bilan oilalar mustahkam boʻladi.

Tarixga nazar tashlasak, hozirgi davrda ayollarga munosabat masalalarida talab qilinayotgan qoidalar islom dinining ezgu gʻoyalari bilan sugʻorilgan xalqimizda azaldan mavjudligini guvohi boʻlamiz. Umuman oʻzbek xalqining hayotida mavjud boʻlgan tartib-qoidalar xalq anʼanalari, islom dini va shariati asosida vujudga kelganini hisobga olsak, hayot qadimdan Sharqda oilaviy turmush tarziga asoslanganini, oilada ayollar eʼzozlanganini, ularning ogʻir ishga jalb etilmasligi, ijobiy fazilatlarning toʻla eʼtirof etilishi bilan ifodalangan. Xususan, islom qonunchiligida ham ayollarning huquqlari himoya qilingan. Islom ayolga mehnatni man etmadi, balki oʻz tabiyatiga munosib, shaxsiyatiga toʻgʻri keladigan mehnat bilan shugʻullanishini targʻib qildi [2].

Oʻzbekistonda xalq orasida asosan qizlarni erta turmushga berish yoki nisbatan yosh qizlarga uylanish amaliyoti mavjud. Bundan asosiy koʻzlangan maqsad ayollarni oilaparvar boʻlishlaridir. Qaynonalar xam odatda yoshroq qizlarni kelin qilish ularni yangi oilaga oson moslashib ketishlarini taʼminlaydi deb hisoblashadi. Erta turmush qurgan ayollar taʼlim, kasbiy rivojlanish va kasb-hunar rivojlanishidan voz kechadilar. Bu jarayonlar mehnat bozorida ayollarning mavqeyini tushishiga olib keladi, raqobatbardoshligini kamaytiradi. Ishlashlariga toʻgʻri kelgan vaziyatlarda eng kam maosh toʻlanadigan sohalarida ishlashga majbur boʻlishadi [3].

Bugungi ayollar migratsiyasi jarayonlarida ana shunday ayollarning ulushi koʻpchilikni tashkil etadi. Ular oʻz oilalarini boqish uchun har qanday ishga tayyor boʻlishadi. Bunday ayollar asosan xizmat koʻrsatish, kasallar va qariyalarga gʻamxoʻrlik sohalarida band boʻlishmoqda.


Lekin bunday sohalarida bandlik qishloq ayollariga unchalik xos emas. Chunki qishloq joylarda qiz bolalarni chetga yuborish nomaqbul ish deb tushuniladi. Asosan turmushdan ajralgan ayollar, beva ayollar, oʻz yaqinlari bilan birga tirikchilik uchun borishadi.

Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, asosan katta ro'zg'ordan alohida mustaqil oila bo'lib chiqqan yoshlarning aksariyati uy-joyini qurib bitkazish va ro'zg'orning kamchiliklarini butlash maqsadida oilaviy bo'lib ketishmoqda. Bunda turmush o'rtoqlari bilan birga ketgan ayollar xam faqatgina oila birligi uchun emas, balki ishlash uchun borishadi. Shunday ayollar bilan suhbatlashganimizda ular asosan uy-joylari bitib, farzandlarini to'ylarini o'tkazib olganlaridan keyin chetga borishmaydi. Faqat turmush o'rtoqlari oila ehtiyojlari uchun mavsumiy borib ishlashadi. Ya'ni bahor kelganda ketib kech kuzda uylariga qaytib kelishadi.

Bunday jarayonlarni Farg'ona viloyatidagi ayollar migratsiyasi bilan taqqoslasak, tuman ayollarining migratsiyasiga ham aynan daromad topish uchun intilish sabab bo'layotganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari o'zlari va oilalari uchun yaxshi sharoit yaratish uchun xam migratsiya qilishmoqda.

Asosiy omillardan yana biri shaxsiy munosabatlar, jumladan oilani birlashtirish, nikohni saqlab qolish uchun xam migratsiya ishtirokchisiga aylanishadi. Aynan shu omil Farg'ona viloyatining Dang'ara, Buvayda, Beshariq tumanlari ayollari migratsiyasi sabablari ichida yetakchilik qiladi.

Chunki aksariyat erkaklar hozirda migratsiyada mehnat muhojiri sifatida ishlamoqdalar. Bu muhojirlarda doim ham uyga kelib turish imkoni yo'q. Shuning uchun ayollar bolalari bilan birga ko'chib ketadi yoki farzandlarni yaqinlariga qoldirib ketishga majbur bo'ladi. Bunday holatlarni asosan 25-35 yoshlardagi ayollarda kuzatish mumkin. Farg'ona viloyati Dang'ara tumanining qishloqlarida yashovchi, migratsiyada bo'lib qaytgan ayollar orasida o'tkazilgan so'rovnomalarimizda "Sizni migratsiya qilishingizga nima sabab bo'lgan?" degan savolimizga 53 nafar ayollardan 18 nafari ishsizlik sababini ko'rsatgan bo'lsa, 18 nafar ayollar oilani birlashtirish maqsadida borishganini ta'kidlashgan. Natija esa o'zbek ayollari orasida migratsiya nafaqat ishsizlik, moliyaviy ahvolni yaxshilash, balki oilaviy munosabatlarni saqlab qolish uchun xam ommalashayotganini ko'rsatadi.



Oilaviy ketgan migrantlarning asosiy maqsadi yangi uy-joyga ega bo'lish, yangi mashina sotib olish, farzandlari uchun yaxshi sharoit yaratish, oilaviy marosimlar(farzandlarning sunnat, hikoh to'ylari) uchun mablag' jamg'arish va boshqalar tashkil etadi. Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, er-xotin birga mehnat qilib yashayotgan oilalar iqtisodiy farovonlikka erishganlar.

Lekin migratsiya jarayonlari va unda ayollar ishtiroki bugungi jamiyatimizdagi oilalarda turli xil ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik muammolar ko'payishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lmoqda. Bu oilaviy munosabatlarda turli ko'ngilsiz holatlar va yo'qotishlarga sabab bo'lmoqda deyish mumkin. Misol uchun er-xotin munosabatlarida funksional buzilishlar, ishonchsizlik paydo bo'lishi natijasida ajralishlar va xiyonatlarning sodir bo'lishi oilaviy munosabatlar tizimini buzilishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi zamonda A.L.Sintsarning tadqiqotlari bo'yicha oilalarning yangi turlari ya'ni "vaqtincha ajralgan" yoki "distant oilalar" paydo bo'lgan. Bunday oilalar bugungi jadallashayotgan migratsiya jarayonlari davrida ko'p uchramoqda. Hatto oilaning muqobil shakliga xam aylanib ulgurgan [4].

Sintsar fikricha, distant oila – bu ota-onalardan biri oilaning sharoitini yaxshilash maqsadida boshqa shaharga yoki davlatga ketib ishlaydigan oilalar hisoblanadi. Bunday oilalarda er-xotinlar va ularning farzandlari bilan muloqoti doimiy bo‘lmaydi va bu holat munosabatlarga, farzandlar rivojlanishidagi buzilishlarga ta’sir ko‘rsatadi. L.V. Boyarin ham o‘z tadqiqotlarida distant oilalar va ularning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilgan [5].

Shuncha muammolarga qaramay bugungi kundagi jadal iqtisodiy rivojlanishlar sharoitida ayollar erkaklar bilan tengma-teng mehnat faoliyati olib borishmoqda va moliyaviy mustaqillikka egalar. Aniq bir kasbga ega bo‘lmagan ayollar ham ishlab daromad topishga harakat qilishadi. Bunga misol qilib ayollarning mehnat migratsiyasini keltirish mumkin. Aynan migratsiyada ishlab topgan mablag‘lari orqali oila farovonligiga hissa qo‘shayotgan ayollar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi [6].

Bugungi tadqiqotlar migratsiyani asosan erkaklarda ham, ayollarda xam maosh uchun erkin va mustaqil ko‘chish jarayoni ekanini ko‘rsatadi. Migrant ayollar daromadlarini asosan kundalik ehtiyojlar uchun ishlatadilar. Erkaklar esa uy-joy, texnika yoki chorva sotib olish uchun sarflaydilar.



Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumanida olib borilgan dala tadqiqotlari 2024-yil, 6-12-avgust [6].

Muhajir ayollarning yuborayotgan daromadlari o‘z vatanlarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni kuchaytirishi, inson huquqlari va gender tengligini rag‘batlantirishi mumkin ekan [8].

Bugungi kunda migrantlarning qiziqishlari va intilishlari xam o‘zgarib boryapti. Asosan sababni pul topish deb keltiramiz, lekin boshqa sabablar xam bor. Masalan, ajrashgan yoki turmushga chiqmagan ayollar ko‘p hollarda mahalliy jamiyatlarida bosim va qoralanishni his qilgani uchun xam migratsiya qilishlarini aytishadi. Ular begona jamiyatda pul topishlari, yashash sharoitlarini yaxshilashlari va hatto yangi oila qurishlari xam mumkin. Shuning uchun migratsiyaning asosiy sababi iqtisodiy qarashlar emas, balki ijtimoiy qarashlar xam bo‘lishi mumkin [7].

O‘zbekistonda ayol migrantlarning o‘z vatanlariga pul o‘tkazmalari katta xajmni tashkil qilmasada, ularning o‘tkazmalarining asosiy qismi sog‘liq, ta‘lim, oila va jamiyat taraqqiyoti uchun sarflanadi [9].

Farg‘ona ayollariga kelsak, ularning migratsiyadagi mablag‘lari eng ko‘p holatlarda oila kamchiliklari uchun, farzandlarini ta‘minoti uchun sarflanadi. Yolg‘iz migratsiya qilgan ayollar o‘z yaqinlari bilan (aka-ukalari, opa-singillari) borib ishlaganda asosiy topgan daromadi o‘zining uy-joyiga ega bo‘lish va shaxsiy hayotini yo‘lga qo‘yish uchun yo‘naltirilgan. Ayrim holatlarda katta farzandlari bilan birga ketishadi.

Tadqiqotimiz davomida farzandlari bilan birga ketgan ayollarning yaqinlari bilan suhbatlashdik. Ularning aytishicha, asosan oila boquvchisini yo‘qotgan holatlarda onabolalar birga ishlagani ketishadi. Muhajirlikda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlab, daromad topishga harakat qilishadi. Asosan maktabni tugatgan, o‘qishga kirolmagan farzandlar ketishgan. Maqsadlari turlicha bu oilalar ba‘zilari o‘qish uchun pul jamg‘arishga, ba‘zilari farzandlarini uylash yoki turmushga berish uchun mablag‘ ishlab topish, ba‘zi holatlarda oilaviy yetishmovchiliklar sabab horijda ishlamoqdalar.

O‘zining iqtisodiy jozibadorligi bilan ko‘plab xotin-qizlarni qamrab olgan ayollar migratsiyasi jarayonlari oilaga, oilaviy munosabatlarga, farzandlarning ma’naviy-ma’rifiy tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Ayniqsa ota-ona daromad izlab farzandlarini o‘z yurtida qoldirib ketish holatlari ko‘p uchraydi. Bunda farzandlar ota-ona nazoratisiz yoki ota-ona qaramog‘isiz tarbiyalanadilar.

Bugungi kunda migrant ota-onalarning 62,6 foizini otalar, 9,6 foizini onalar, 24,9 foizini ota-onaning ikkalasi tashkil etadi. 45 foiz migrantlar oilalarida kamida ikkitadan farzandlarini o‘z yurtida qoldirgan, bunda 37 foiz holatda ota yoki ona qarindoshlarida qoldirilgan [10].

Shunday vaziyatlarda ikki omil – xorij mamlakatlardagi urf-odatlar, madaniyatlar oilalarga kirib kelishi va bolalar tarbiyasiga singib borishi va ota-onasidan uzoqda bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiyasida ota-onaning o‘z ma’suliyatini bajarishga imkon yo‘qligi, oilada er-xotinlar o‘rtasidagi munosabatlarning sa‘lbiy o‘zgarishlari kabi muammolar yuzaga keladi [10].

Tadqiqotlarimiz jarayonida ota-onasi birgalikda migratsiya qilgan oilalarning farzandlarini kuzatdik. Ularning orasida faqat otasi yoki onasi migrant bo‘lganlari ham talaygina. Ayniqsa oiladagi qiz farzanlarga bu jarayonda ko‘proq ma’suliyat yuklanadi. Qizlarini xolalari, ammalari va shunga o‘xshash yaqin qarindoshlar qaramog‘ida qoldirib ketishadi. Qizlar uyda ona yo‘qligi sabab ko‘p yumushlarni o‘z zimmlariga oladilar. Axborotchimiz 16 yoshli qiz bilan suhbatlashganimizda u avval a’lo baholarga o‘qiganligi, hozirda onasi xorijda ishlashini, uyda otasi va ikki nafar ukasining parvarishi uning zimmasida ekanligini ta’kidladi. Oilada otasi kasal bo‘lgani uchun ona asosiy boquvchi hisoblanadi.

Farzandlarini yaqinlariga qoldirib ketgan ayollardan asosan kimlarga bolalarini tashlab ketishganini so‘raganimizda ko‘proq bobo-buvilarga, ayol o‘zining akasingillariga qoldirib ketishganini ma’lum qilishdi. Ularning fikricha, ota-onasi migratsiyada bo‘lgan bolalarga atrofdagilarning munosabatlari xam salbiy tarafga

o'zgaradi. Axborotchilarimizning ko'pchiligi migratsiyaning bolalar xulq-atvoriga, ma'naviyatiga, tarbiyasiga salbiy ta'sirlari haqida aytib o'tishdi.

Lekin ijobiy ta'sirlari ham borligini inkor qilishmadi. Bunda asosan moddiy ahvolning yaxshilanishi, oilalarda moliyaviy mablag'ning ortib borishi nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, ayollar migratsiyasining oilaviy munosabatlarga ta'sirini ijobiy va salbiy xususiyatlarda ko'rib chiqish mumkin. Salbiy ta'sirlar sifatida oilalarning axloqiy qiyofasining o'zgarishi, oilaviy munosabatlarning o'zgarishi, ajrimlar sonining ortib borishi, to'liqsiz oilalarning paydo bo'lishi, farzandlar tarbiyasidagi muammolarni ko'rsatish mumkin.

Ijobiy ta'sirlar sifatida oila farovonligining oshishi, ayollarning jamiyatdagi o'rni ortishi, turmush madaniyatining o'zgarishi, farzandlar tarbiyasi uchun sarmoya jamg'arish imkoniyati, moliyaviy savodxonlik kabi o'zgarishlarni keltirish mumkin.

Bu boradagi fikrlar va qarashlar turlicha bo'lgani uchun oxirigacha yechimga ega bo'lmagan bahsli mavzu bo'lib qoladi. Chunki milliy mentalitet xususiyatlaridan kelib chiqib hamma xam ayollarning iqtisodiy erkinliklari va mustaqilliklarini tan olishni xohlamaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Morrison, Andrew.R, Schiff Mauris, Mirja. "The international migration of women"New York.2007
2. Djasanova.S. Jamiyat hayotida xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faolligi. - Toshkent."TAFAKKUR QANOTI"2014 b.4
3. Ayollar migratsiyasini sotsiomadaniy munosabatlar o'zgarishiga ta'siri. <https://fayllar.org/> 13.04.2023
4. Цынцарь А.Л. Психолого-педагогические условия формирования самосознания подростков из дистантных семей. //Автореферат диссертации на

соискание учёной степени кандидата психологических наук, Нижний Новгород, 2015 г.

5. Боярин.Л.В. Психологические особенности социально непропорционального поведения подростков из дальних семей и его коррекции.// Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата психологических наук, 2014 г

6. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Dang‘ara tumani, Kapasaroy qishlog‘i,2024-yil

7. Сергей Абашин: трудовые мигранты из Узбекистана и миграция.
<https://hook.report/2022/08/migrants-from-uzb/>

8. UNFPA, The UNFPA State of the World Population 2006.

9. <https://demografiya.uz/ilmiy-tahliliy-axborotnoma/ayollar-mehnat-migratsiyasining-asosiy-oqimlari-va-zamonaviy-yo-nalishlari/Demografiya>

10. “Влияние миграция на детей в Узбекистане” ЮНИСЕФ 2019
www.unisef.org/uzbekistan/en/reports/study-report-effekt-migration-children-uzbekistan

11.Маджидова.Д.А. // Оилалар мустаҳкамлигини таъминлашда миграция таъсирида юзага келувчи хатарларни олдини олишнинг муҳим йўналишлари.UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION. ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL.№04

12. Dala yozuvlari.Dang‘ara tumani.Abdusamad qishlog‘i.2024 yil

МИГРАЦИЯ ЖЕНЩИН: НЕКОТОРЫЕ РАССУЖДЕНИЯ О ПРИЧИНАХ И ИЗМЕНЕНИЯХ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.

Аннотация. В условиях современной глобализации женщины всё чаще мигрируют не для того, чтобы находиться на иждивении членов семьи, а с целью трудоустройства. Этот процесс получил название феминизация миграции. В данной статье анализируется социальное, культурное и экономическое

воздействие женской миграции на семейные отношения. Особое внимание уделено влиянию женской миграции на состав семьи, семейные отношения, сохранение семейных ценностей и воспитание детей на основе анкетных опросов, интервью с информантами и жизненных примеров, проведённых на территории Ферганской области.

Ключевые слова: феминизация, социально-культурное влияние, гендерное равенство, экономическая активность женщин, «дистанционные семьи», семейные ценности.

WOMEN'S MIGRATION: SOME REFLECTIONS ON THE CAUSES AND CHANGES IN FAMILY RELATIONS.

Annotation. In today's context of globalization, women are increasingly migrating not to depend on their family members, but to seek employment opportunities. This phenomenon is referred to as the feminization of migration. This article analyzes the social, cultural, and economic impact of women's migration on family relationships. In particular, it focuses on the effects of female migration on family structure, familial relationships, the preservation of family values, and child upbringing—drawing on surveys conducted in the Fergana region, interviews with informants, and real-life case studies.

Keywords: feminization, socio-cultural impact, gender equality, women's economic activity, distant families, family values.